

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGI

Omonova Maftuna

Qo'qon universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari samaradorligini keng tarzda yoritilishi, muhim jihatlari, o'quvchilarda aqliy qobiliyati hamda intellektual salohiyati rivojlantirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy, axborot, kommunikatsiya, intellektual, multimedia, video rolik, pedagogik, interfaol, animatsiya, grafika, diafilm, videofilm.

ABSTRACT

In this article, information is provided about the effectiveness of modern information and communication technologies, their important aspects, and the development of mental abilities and intellectual potential of students.

Keywords: Modern, information, communication, intellectual, multimedia, video, pedagogical, interactive, animation, graphics, slide film, video film.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об эффективности современных информационно-коммуникационных технологий, их важных аспектах, развитии умственных способностей и интеллектуального потенциала студентов.

Ключевые слова: Модерн, информация, коммуникация, интеллектуальный, мультимедийный, видео, педагогический, интерактивный, анимация, графика, слайд-фильм, видеofilm.

Mamlakatimizda amalda bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining hal qiluvchi bosqichlaridan sanaladi. Chunki ushbu bosqich o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarga fan yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilimlar beradi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Davlat ta'lim standarti bo'yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'z g'azalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Asosan boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning yuksak bilim egallashida zamonaviy axborot kommunikatsiyalari va

multimedia ta'limi ham muhim o'rinda turadi. Multimedia ta'limi orqali biz bolalarda milliy qadryatlarni video rolik shaklida jonlantirishimiz ham mumkin. Ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Hozirda ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ta'lim jarayonining muhim negizi bo'lib, o'quvchi yoshlarning yangi axborotlarga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda. Bu asosida yoshlarda zamonaviy axborotga oid bilim shakllanishi, asosiy rivojlanish o'qituvchi yoshlarga samarali usullar asosida tushuntirish va rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «**Aqliy hujum**», «**Fikrlar hujumi**», «**Tarmoqlar metodi**», «**Sinkveyn**», «**BBB**», «**Beshinchisi ortiqcha**», «**6x6x6**», «**Bahs-munozara**», «**Rolli o'yin**», «**Kichik guruhlarda ishlash**», «**Yumaloqlangan qor**», «**Zigzag**», «**Oxirgi so'zni men aytay**» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «**Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan**

savolga javob izlab ko‘raylik»¹ - degan fikrlariga javoban ta‘lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishishga o‘z hissangizni qo‘shasiz degan umiddamiz.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta‘limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatligi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarni turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta‘lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil olaman» deya o‘ziga savol berishi ya‘ni, an‘anaviy ta‘limdan qochib, noan‘anaviy ta‘lim berishga intilishi lozim. Ma‘lumki, ta‘lim bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo‘lib, dars orqali o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida esa o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma‘lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi. Hozirgi kunda umumta‘lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta‘lim jarayonidazamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e‘tirof etilganligi xech kimga sir emas. Jumladan, U.Sh.Begimkulov ta‘lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta‘lim jarayonida multimedia, o‘qitishda immitatsiya zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma‘lumotlar bazasini yaratishni taklif

¹ Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O‘zbekiston», 2009, 15-bet.

etadi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.¹

Kompyuter dasturi orqali oddiy didaktik materiallar tayyorlashda va ularni kompyuter sinflarida o'tiladigan darslarda o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun taqdim etish mumkin. Bunday didaktik material izohli matn sifatida, rasmlar bilan bezalgan holda, nazorat savollari bilan o'quvchilarga beriladi va o'quvchilar tomonidan bajarilishi nazorat qilinadi. O'qituvchi faoliyatida eng muhim jihatlardan biri bu o'quvchilarning bilimni baholab borishdir. Barcha umumta'lim fanlarining turli bo'limlariga oid nazorat testlarini kompyuter yordamida tuzish mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta'lim darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmaketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o'qituvchi dars jarayonida kompyuter yordamida mavjud materiallarni turli xil shaklda: slaydlar, video va audio parchalar diagrammalar, jadvallar, musiqiy ko'rinishlarda taqdim etiladi. Kompyuter yordamida dars jarayonini tashkil etilishi o'quvchilar tasavvuri va xotirasiga kuchli ta'sir qilib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, darsni qiziqarli jarayonga aylantirib, o'quvchilarni u yoki bu tarixiy davrga olib kirish va voqealar ichida go'yoki ishtirok etish imkonini beradi. Bugungi kun ta'limi o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish oid fikr va

¹ <http://fayllar.org/urganch-davlat-pedagogika-instituti-v3.html?page=2>

mulohazalarimizni bayon etamiz. Boshlang'ich sinflarda ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha fikrlarimizni bayon etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. || O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq- T.: << O'zbekiston>> NMIU, 2016. – 13-6.
2. Bobomurodova A.Y. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin- topishmoqlardan foydalanish. | Ped. fan. nom. diss. aftoref. 1997.-20-6.
3. Fuzailof S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 3- sinf uchun darslik. | Qayta ishlangan 11-nashri. – T.: <<O'qituvchi>> NMIU, 2010. – 144-6.
4. Lolaxon O'rinboyeva, Mamanazar Jumayev, Nigora Ruzikulova, Umid Raxmonov, Shuxrat Ismailov, Nodira Ismailova, Nazimaxanum Usmanova. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent 2021.
5. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 661-663..
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
9. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
10. SI Jumanova, G Mullaboyeva. BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
11. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek Qizi Pozilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda pirls tadqiqotining ahamiyati.